V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

2019 yilning yanvar-iyun holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub’ektlarining soni 15182 tani tashkil qildi. Viloyat bo‘yicha kichik tadbirkorlik korxona va tashkilotlarining soni Urganch shahrida 3711 ta, Xiva shahrida 1560 ta, Xiva tumanida 1404 ta, Urganch tumanida 1732 ta, Xonqa tumanida 1152 ta, Yangiariq tumanida 898 ta, Xazorasp tumanida 1032 ta, Gurlan tumanida 879 ta, Qo‘shko‘pir tumanida 881 ta, Bog‘ot tumanida 716 ta, Shovot tumanida 698 ta va Yangibozor tumanida 519 tani tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik biznes sub’ektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

2019 yil yanvar–iyun holatiga (jamiga nisbatan foizda)



Eng ko‘p kichik biznes sub’ektlari savdo sohasida (jami tashkil etilgan sub’ektlarning 36,5 foizi), sanoat tarmog‘ida (22,3 foiz), qurilishda (7,4 foiz), qishloq,o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (13,0 foiz) tashkil etilgan.

2019 yilning yanvar-iyun kichik tadbirkorlik sub’ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo‘yicha eng ko‘p ko‘rsatkich Urganch shahrida 23,9 birlikda, Xiva shaxrida 16,2 birlikda, Gurlan tumanida 10,7 birlikda, Urganch tumanida 12,0 birlikda, Xiva tumani 11,4 birlikda, YAngiarik tumanida 15,3 birlikda, Yangibozor tumanida 17,1 birlikda bo‘lib, o‘rtacha ko‘rsatkich 9-10 birlik oralig‘ida Xazorasp, Bog‘ot, Ko‘shko‘pir, Shovot, Xonka tumanlarida ushbu ko‘rsatkich past bo‘lib qolmoqda.

2019 yilning yanvar-iyun hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik sub’ektlarining soni *(har 1000 aholiga, birlikda)*.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(birlik, fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)

	2019 yil 1 iyul holatiga ro‘yxatga olingan	*2019 yil yanvar-iyun*	
		tashkil topdi	*tugatildi*
Viloyat bo‘yicha:	**15182**	**3125**	**536**
shaharlar:			
Urganch	3711	578	88
Xiva	1560	298	**65**
tumanlar:			
Bog‘ot	716	173	19
Gurlan	879	238	26
Qo‘shko‘pir	881	212	18
Urganch	1732	425	55
Xazorasp	1032	267	40
Xonqa	1152	242	17
Xiva	1404	214	85
Shovot	698	198	34
Yangiariq	898	169	70
Yangibozor	519	111	19

2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyatda ro‘yxatga olingan yangi kichik tadbirkorlik (biznes) sub’ektlari soni 3125 tani tashkil topgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich Urganch shahrida 578 ta, Urganch tumanida 425 ta, Xiva shaxrida 298 ta, Honqa tumanida 242 ta, Qo‘shko‘pir tumanida 212 ta, Xazorasp tumanida 267 ta, Xiva tumanida 214 ta, Shovot tumanida 198 ta, Yangiariq tumanida 169 ta, Gurlan tumanida 238 ta, Bog‘ot tumanida 173 ta va Yangibozor tumanida 111 tani tashkil qildi.

2019 yil yanvar-iyun Yalpi hududiy mahsulotning 70,4 foizi (2018 yil yanvar-iyun

74,8 foiz) kichik biznes sub’ektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2019 yilning yanvar-iyun kichik tadbirkorlik (biznes) sub’ektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1262,9 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 111,7 foizi) yoki 2018 yilning yanvar-iyun nisbatan o‘sish sur’ati foizni tashkil qildi;

- 4907,4 mlrd. so‘mlik qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o‘sish sur’ati 103,6 foizni (qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari Yalpi mahsulotining 99,5 foizi) tashkil qildi;

- 1658,9 mlrd. so‘mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 63,7 foizi) o‘zlashtirildi va 2018 yilning yanvar- iyun nisbatan 68,3 foizni tashkil qildi;

- 1228,3 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 93,9 foizi) bajarildi va 2018 yilning yanvar-iyun nisbatan 116,0 foizni tashkil qildi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 9,1 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 92,7 foizi), yo‘lovchi aylanmasining esa 2,8 foizga (umumiy yo‘lovchi aylanmasining 94,2 foizi) ko‘payishi ta’minlandi;

-Chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 76,5 foizi yoki 2400,9 mlrd. so‘mi (o‘sish 104,6 foiz) va xizmatlar umumiy hajmining, mos ravishda 64,9 foizi yoki 1631,1 mlrd. so‘mi (o‘sish 106,9 foiz) shakllantirildi;

- 79,1 mln AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 91,8 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 147,4 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 92,8 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi xususiy tadbirkorlikning (fuqarolar mulki) ulushi

(2019 yilning yanvar-iyun)

	Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm	*Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiy sektor ulushi, % hisobida*
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4907,5	103,6
Sanoat	1262,9	111,7
Qurilish	1228,4	116,0
Chakana savdo	2400,9	104,6
YUk tashish, *mln tn.*	15,6	105,5
Yo'lovchi tashish, *mln.kishi*	185,0	103,2
Eksport, *mln. AQSH doll.*	79,1	91,8
Import, *mln. AQSH doll.*	147,3	92,8

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

(*foizda*)